

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARINI O'RGATISHNING AHAMIYATI

Djumaniyazova Qalbike Qalievna

Nukus shahar №36-sonli umumta 'lim maktabi o 'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Mahbub ul-qulub”ning tuzilishi, birinchi, ikkinchi, uchinchi faslidagi masalalar o’rganildi. Undagi ma’naviy-axloqiy qarashlar, ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: Komil inson, insoniy fazilatlar, axloq, ta’lim-tarbiya, adolat, rostgo‘ylik.

Kirish. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy jahon adabiyoti xazinasini o‘zining hassos she’riyati, fan sohalarining turli tarmoqlariga bag‘ishlangan boy ilmiy merosi bilan boyitgan so‘z san’atkoridir. Uning “Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillarning sevgani”) pandnomasi eng so‘nggi yirik nasriy asari bo‘lib, 1500-yilda yozilgan. Unda ulug‘ mutafakkirning umri davomida ko‘rgani, kuzatgani, boshidan kechirgani, hayotiy tashvishlarining qalb qatlam-u qavatlaridan sizilib chiqqan lo‘nda, umumlashgan xulosalari o‘z ifodasini topgan. Musajja’ san’atining nodir namunasi sanalgan bu noyob asarning bunyod etilishi sabablarini muallif quyidagicha izohlaydi: “... bolalikdan to qarilikka qadar ko‘hna davron voqealaridan, aylanuvchi osmon hodisalaridan, fitna qo‘zg‘ovchi dunyo buqalamunligidan zamonaning rang singari gunogunligidan ko‘p vaqt va uzoq muddat har xil hayol va taraddudlar bilan daydib yurdim, har tovur va ravishda bo‘ldim va turli yo‘llarga kirdim, yaxshi-yomonning xizmatini qildim, katta-kichikning suhbatida bo‘ldim, goh xorlik va qiyinchilik vayronasida nola qildim, goho izzat va ma’murlik bo‘stonida majlis qurdim... Goh amirlik ornida o‘tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arz-dodini surdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qaragan elga muruvvat ko‘rsatdim... Maqsadim shuki, har

yo‘lda yurdim, olamda bo‘lmish har nav’ odam bilan ko‘rishdim, katta-kichikning fe’l-u atvorini o‘rgandim, yaxshi-yomonning xislatlarini tajribadan o‘tkazdim, yaxshilik va yomonliklarning sharbatini ichib, zahrini totib ko‘rdim...” [1,3] .

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur maqolani yozishda A.Hayitmetov [2], U.To‘ychiyev [3], Z.Masharipova [4], Sultonmurod Olim [5], Izzat Sulton [6], Sh.Sirojiddinov [7] kabi navoiyshunos olimlarning ilmiy-nazariy tatqiqotlaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida inson odobi, xulq-atvori, yaxshilik va yomonlik, vafo va xiyonat, rostgo‘ylik va yolg‘onchilik, saxovat va baxillik,adolat va zulm kabi ko‘plab tushunchalar tasvirlab berilgan. Bu asardagi har bir mavzu yetuk, komil insonlarni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Unda keltirilgan hikmatlarning barchasida buyuk mutafakkirning olam va odam, Yaratgan va yaratilmish, o‘lim va hayot bilan bog‘liq qarashlari aks etadi. Ushbu hikmatlarning barchasini alohida-alohida o‘rganish, ularning manbalarini aniqlash, mavzularini yoritish, yoshlar tarbiyasidagi o‘rnini ko‘rsatish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Navoiyning hayotining so‘ngida yaratgan “Mahbub ul-qulub” asari ana shunday hikmatlar majmuasi bo‘lib, asar uch qismdan iborat.

Birinchi qism “Xaloyiq ahvol va af’ol va aqvolinaing kayfiyati” (har xil toifa odamlar fe’l-atvori va ahvoli kayfiyati) deb nomlanib, shoir undagi 40 faslda turli ijtimoiy tabaqalarning niyati, faoliyati va so‘zları haqida o‘z xulosa va kuzatuvarlarini bayon qiladi. Boblarga quyidagi tartibda sarlavha qo‘yilgan: 1) Odil salotin zikrida; 2) Islompanoh beklar zikrida; 3) Nomunosib noiblar zikrida; 4) Zolim va johil va fosiq podshohlar zikrida; 5) Vuzaro zikrida; 6) Noqobil sadrlar zikrida; 7) Fosiq va badmaosh, bahodirliq lofin urg‘onlar zikrida; 8) Yasovul guruhi zikrida; 9) Yasog‘liq va qaro cherik zikrida; 10) Shoh ulusi o‘ziga mushobih bo‘lur zikrida; 11) Shayx ul-islom zikrida; 12) Quzzot zikrida; 13) Muftiy faqihlar zikrida; 14) Mudarrislар zikrida; 15) Atibbo zik-rida; 16) Nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari zikrida; 17) Kotiblar zikrida; 18) Dabiriston

ahli zikrida; 19) Imomlar zikrida; 20) Muqriylar zikrida; 21) Huffoz zikrida; 22) Mutrib va mug‘anniylar zikrida; 23) Qissasoz va qissaxonlar zikrida; 24) Nasihat ahli va voizlar zikrida; 25) Ahli nujum zikrida; 26) Tijorat ahli zikrida; 27) Shaharda olib sotquvchilar zikrida; 28) Bozor kosiblari zikrida; 29) Soyir hunarvar va san’atpardonozlar zikrida; 30) Shahna va zindoniy va asaslar zikrida; 31) Dehqonlik zikrida; 32) Yatim va laimlar zikrida; 33) G‘arib va benavolar zikrida; 34) Mubrim gadolar zikrida; 35) Qushchi va sayyod zikrida; 36) Tarbiyat topib, haromnamaklik qilg‘on navkarlar zikrida; 37) Kadxudolig‘ sifati va xotunlar zikrida; 38) Riyoiy shayxlar zikrida; 39) Xarobot ahli zikrida; 40) Darveshlar zikrida.

Ushbu boblarni mazmun-mundarijasiga ko‘ra, quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) Podshoh va saroy ahlining tavsifiga bag‘ishlangan boblar (1–10- boblar);
- 2) Jamiyatning diniy hayotida muhim rol o‘ynaydigan toifalar (11–13, 19–21-boblar);
- 3) ta’lim-tarbiya, fan va madaniyat sohalari bilan shug‘ullanuvchi kishilar (16–18, 22–25-boblar);
- 4) shaharda tartibni saqlash, tijorat, dehqonchilik va hunarmandlik bilan shug‘ullanuvchi tabaqa (26–31-boblar);
- 5) oiladorlik va ayollar qatlami (37-bob);
- 5) keraksiz va zararli narsalarni o‘ziga kasb qilib olgan, aniq kasb-korga ega bo‘lmagan hamda jamiyatning qashshoq toifasiga mansub kishilar (32–34, 36–37, 39–40-boblar) [7] .

Asarning ikkinchi qismi “Hamida af’ol va zamima xisol xosiyati” (“Yaxshi fe’llar va yomon xislatlar xosiyati”) deb nomlangan bo‘lib, unda komillikka erishish yo‘li, tasavvuf tamoyillari haqida fikr yuritiladi. Ushbu qismda yomonliklardan mosuvo bo‘lishning eng to‘g‘ri yo‘li nafsn ni riyozat bilan mavh etish sabr-u qanoat bilan pok yashash, ruhni chiniqtira borib, hamda axloqqa erishish xususida fikr yuritiladi. Nafsn mag‘lub etib, ilohiy fayzdan baha olishning dastlabki bekati tavbadir. Tavbadan murod haq yo‘liga kirgan soliqning barcha yomon ishlaridan ogoh bo‘lib, ulardan butkul voz

kechishi, har taraflama poklanishdir. Mazkur qismda 1 ta masnaviy, 3 ta qit'a, 4 ta ruboiy, 14 ta bayt o'rin olgan, nazm janridagi namunalar keltirilmagan. "Mahbub ul-qulub"ning uchinchi qismi "Mutafarriqa favoid va amsol surati" (Turli foydali maslahatlar va maqollar) deb nomlangan. Bu bo'limda odob va axloq masalalariga doir to'rt yuzga yaqin maqol va hikmatli so'zlar tanbehtar shaklida qo'llanilgan bo'lib, adib ular orqali pand-nasihat berib, go'zal insoniy fazilatlarni egallashga, yomon illatlardan saqlanishga, ilm o'rganishga, yaxshilarga yor, muhtojlarga madadkor bo'lib, xalq va Xoliq oldidagi burch, vazifalarini halol ado etishga da'vat etadi".

Xulosa va takliflar. "Mahbub ul-qulub"dagi har bir tanbeh, bayt yoki qit'a hayotiy hikmat darajasiga ko'tarilganki, bu tanbehtar zamiriga xalqning ko'p asrlik hayot tajribasi davomida to'plagan maqol va matallarining mazmuni singdirilgan. Asarda shoirning umri davomida ko'rgani, kuzatgani, boshidan kechirgani, inson va yashash bilan bog'liq ko'pdan-ko'p mulohazalari bayon qilingan. Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari va undagi ma'naviy-ma'rifiy, ta'limiy-tarbiyaviy qarashlar g'oyaviy-badiiy jihatdan katta ahamiyatga ega asardir. Asarga kiritilgan nasihatlar, hikmatalar, tanbehtar ijod mahsuli badiyilagini yanada oshirgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub" Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2011. –B. 453
2. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – Toshkent: M'anaviyat, 1997.
3. To'ychiyev U. Navoiyni ishqni turlarga ajratib tasvirlashi // O'zbek tili va adabiyoti, 2010. 6-sон
4. Masharipova Z. "Mahbub ul-qulub" hikmatlarida xalq maqollar. // Navoiyga armug'on. 5-kitob. – Toshkent, 2006.
5. Sultonmurod Olim. "Mabub ul-qulub"da shoirlar va oshiqlar // O'zbek tili va adabiyoti, 2010. 6-sон
6. Izzat Sulton .Navoiyning qalb daftari. – Toshkent, 2010
7. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. Ikki jildlik. 1-jild / Mas'ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – T.: Sharq. 2016. – Б. 327.